

Abdullayeva Dilnoza

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi

Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika universiteti

magistratura bo'limi

BOLALARDA KOMMUNIKATIV QOBILYATNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda inferfaol usullardan foydalanishning metodologik jihatlari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, kommunikativ kompetensiya, metod, so'zlashish, muloqot, pedagogika, ta'lim.

KIRISH

Maktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi o'z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Bu yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o'z nutqida 500–600 so'zni ishlatadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar nutqi, asosan, ot, fe'l, sifat, son va bog'lovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgani afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6–7 yoshli bola o'z jumllarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni o'zlashtirishi ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. 7–9 yoshli bolalarning o'ziga xos bir xususiyati – bola nutqida o'z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Insonlarda qadim zamonlardan xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish mavjud bo'lgan. Boshlang'ich sinflarda xorijiy tilni o'rganish – bu til haqida ma'lumot olish va uni o'zlashtirishgina emas, balki o'quvchining faol muloqotga kirishish jarayoni hamdir. Xorijiy tillarni o'rganish pedagogikasini o'rgangan olim I.A.Grishanovning fikricha, xorijiy tilni o'rganishda eng oddiy, eng sodda yo'llarni izlash va qo'llash muhimdir [3]. Boshlang'ich sinflardan xorijiy tilni o'rgatishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni shu tilda muomalaga o'rgatishdir. Xorijiy tilda muomala qila olish uchun o'quvchilar shu tildagi so'z boyliklarini egallashlari zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Boshlang'ich sinfda xorijiy til o'qitilishining nazariy va amaliy jihatlari haqida gap yuritilganda quyidagi ma'lumotlarni aytish mumkin. Bola ta'lim jarayoniga kelib murakkab psixik o'zgarishlarni boshidan kechiradi. Bolaning jismoniy va psixik faolligi o'zaro bog'liqdir. Chunki ruhan sog'lom bola harakatchan bo'ladi. Psixik faollik – bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof- olamdagi predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishidir. Psixik faollik deganda, bolaning o'zini bilishga nisbatan ehtiyoji ham tushuniladi.

Maktabga birinchi bor kelgan bolada qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu qiyinchiliklar xorijiy tilni o'zlashtirish bilan ham bog'liqdir. Xorijiy tilni o'zlashtirish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun tabiiy til muhitini yaratish lozim. Boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'rgatish metodikasida

aynan shunday muhitni yaratish uchun mashqlar, o'yinlar, multimedia resurslari jamlanishi zarur. Ular o'ziga xos holda xorijiy tilni o'zlashtirishga motivatsion muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Kommunikativ kompetensiya - muloqot va munosabatlarning majmuiga ega bo'lgan murakkab, ko'p bosqichli tizim. U boshqa barcha kompetensiyalarning asosi bo'lgani uchun haqli ravishda yetakchi va poydevori hisoblanadi, shuningdek, jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tilida yoki biror xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda undan muloqot jarayonida samarali foydalana olishdir[5].

Shunday qilib kommunikativ kompetensiya tushunchasi bir qancha quyidagi kompetensiyalar majmuiga asoslanadi:

Lingvistik kompetensiya (Compétence linguistique) - o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish qobiliyatidir;[2].


Sotsiolingvistik kompetensiya (Compétence sociolinguistique)-ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish; muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z fikrini himoya qila bilish, uni ishontira bilishdir; [4].

Ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda quyidagi interfaol metodlarni samarali deb topdik:

"Aqliy hujum" usuli

«Aqliy hujum» biror muammoni yeshishda guruh qatnashshilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yeshimga kelinadigan eng samarali usuldir. U to'g'ri va ijodiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. "Aqliy hujum" yordamida turli xil muammolarni hal qilishning yo'llari izlanadi.

Baliq skeleti



hal qilish hal qilish hal qilish hal qilish

Muammoni qo'yish va hal qilishning mazkur modeli bir qator muammolarni ta'riflash va yeshib ko'rishga imkon beradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Bugungi kunda xorijiy tilni Umumyevropa standartlari asosida o'qitishda kompetensiyalarga alohida e'tibor qaratilgan. Bu kompetensiyalar ta'lim mazmuni, o'quvchilarning xorijiy tilni bilishlari va ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalari bilan bevosita bog'liqdir. Aytib o'tish lozimki, mamlakatimizda boshlang'ich sinfdan xorijiy tilni o'rganish amaliyoti ko'plab izlanishlar natijasidir. Xorijiy tilni kichik maktab yoshidan o'qitish nafaqat ta'limiy, balki

tarbiyaviy va informativ xarakterga ega. Bola umuminsoniy qadriyatlarni oʻzga til orqali oʻzlashtira boshlaydi. Xorijiy tilni ilk bolalikdan oʻrganish kimlargadir taqlid qilish emas, bu davr talabi va ehtiyojidir. Bu vaziyatda oʻqituvchining asosiy vazifasi xorijiy tilni oʻrgatish jarayonini bolaga qiziqarli qilib tashkil etish va uning shaxsini rivojlantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Davletshin M.G., Toʻychieva S.M. Yosh davrlar va pedagogik psixologiya. Oʻquv qoʻllanma. – T., 2012.
2. Grishanova I.A. Boshlangʻich maktab oʻquvchilariga chet tilini oʻrgatishda muvaffaqiyat holatini yangilash. // “Maktabda chet tili” jurnali, 2017 yil, 8-son. -BILAN. 28–29.
3. Grishanova I.A. Kichik maktab oʻquvchilari oʻrtasida kommunikativ muvaffaqiyatni rivojlantirish dasturi. – Izhevsk, 2010. –S. 34.
4. Trofimov G.S. Chet tillarni oʻqitishning pedagogik asoslari. – Izhevsk: “Udmurtiya” nashriyoti, 2019. – P. 7.
5. Petrovskaya L.A. Muloqot - kompetentsiya - trening. Tanlangan asarlar – Noshirlar: Sense. – 2017. 387 b.